

- 3 Mavzu matni hamda darslik ilovasidan foydalangan holda Osiyodagi monarxiya davlatlarini toping hamda ularni yozuvsiz xaritaga tushiring.
- 4 Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan jahon bo'yicha alohida ajralib turadigan Osiyo davlatlaridan qaysilarini bilasiz? Sizningcha, ularning yuqori iqtisodiy o'sishga erishishida iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari qanday ahamiyat kasb etgan?
- 5 Osiyoning orollarda joylashgan davlatlarini xaritadan topib, ularning nomlari va poytaxtlarini daftaringizga yozib oling.

### 32-§. Amaliy mashg'ulot

#### *Osiyo siyosiy xaritasini o'rganish*

1. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib quyidagi Osiyo davlatlari orasidan quruqlik ichkarisida joylashganlarini toping.

|             |           |           |             |
|-------------|-----------|-----------|-------------|
| Gruziya     | Kambodja  | Suriya    | Nepal       |
| Afg'oniston | Livan     | Mongoliya | Armaniston  |
| Butan       | Iroq      | Laos      | Qozog'iston |
| Brunej      | Iordaniya | Qatar     | Bangladesh  |

2. Osiyo qirg'oqlarini yuvib turuvchi okean, dengiz, qo'ltiq va bo'g'izlar nomlarini daftaringizga yozib oling.

3. Atlasdagi jahon va Osiyoning siyosiy xaritalari hamda darslik ilovasidagi ma'lumotlar asosida quyidagi davlatlarning poytaxtlari to'g'ri yoki noto'g'ri berilganini aniqlab, xatolarni tuzating.

Tailand — Bangkok

Gruziya — Boku

Yaman — Sana

Yaponiya — Tokio

Eron — Islomobod

Qirg'iziston — Bishkek

Turkiya — Bag'dod

Vetnam — Xanoy

Qatar — Abu Dabi

Sharqiy Timor — Dili

Tojikiston — Dushanbe


Shri Lanka — Dakka

Filippin — Male

Bahrayn — Manama

Indoneziya — Jakarta

4. Rasmda berilgan davlatlar nomini aniqlang va ularning umumiy o'xshash jihatini toping.



5. Quyidagi xaritada ajratib ko'rsatilgan davlatlar nomini toping va ularga tegishli ma'lumotlarni to'g'ri tanlang.



- a) federativ tuzilishga ega;
- b) jahonning 2 ta eng yirik ichki kontinental davlatlaridan biri;
- d) jahonning 10 ta eng yirik davlatlari qatoriga kiradi;
- e) Osiyoning eng yosh davlatlaridan biri;
- f) mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega;
- g) poytaxti Tximpxu shahri.